

YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN BOLALARNI IJTIMOY HIMOYALASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7440592>

Ismoilova Salimabonu Rasuljon qizi

O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy ish yonalishi 2-kurs magistranti

Latipova Nodira Muxtorjonovna

Sotsiologiya fanlari doktori, professor



ELSEVIER



Received: 13-12-2022

Accepted: 15-12-2022

Published: 22-12-2022

Abstract: Ushbu maqolada yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimining institutsional asoslari haqida fikr yuritilgan.

Keywords: Ijtimoiy, soha, qonun, mustaqillik, aholi, ota ona, inson, jamiyat.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF THE SYSTEM OF SOCIAL PROTECTION OF ORPHANS AND CHILDREN WITHOUT THE HELP OF PARENTS

Ismailova Salimabonu daughter of Rasuljon

2nd year master student of the Department of Social Work of the National University of Uzbekistan

Latipova Nodira Mukhtorjonovna

doctor of sociological sciences, professor



Received: 13-12-2022

Accepted: 15-12-2022

Published: 22-12-2022

Abstract: This article discusses the institutional framework of the social protection system for orphans and children left without parental care.

Keywords: Ijtimoiy, soha, qonun, mustaqillik, aholi, ota ona, inson, jamiyat. Social, field, law, independence, population, parents, person, society.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Kirish. Davlat ijtimoiy himoya tizimining birlamchi subekti sifatida aholining turli qatlamlarini istisnosiz qamrab oladi. Jumladan, yetim bolalar, "ijtimoiy yetim" yoki ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar davlat ijtimoiy siyosatining diqqat markazida turadi. Yetim bolalar – ota-onasi yoki ulardan biri o'lgan 18 yoshga to'lmagan bolalar bo'lsa, "sotsial yetimlik" yoki ota-ona qarovsiz qolgan bolalar esa – ota-onalik huquqidan mahrum etilganligi, layoqatsiz deb topilganligi, davolash muassasalarida bo'lganligi, yoki boshqa sabablar bois ota-onasining ikkalasi yoki birining vasiyligidan mahrum 18 yoshgacha bo'lgan bolalardir. Bu kabi bolalar davlatning tegishli organlari va tashkilotlari tomonidan ijtimoiy

himoyalani va balogʻat yoshiga yetgunga qadar ular uchun yaratilgan maxsus institutsional muassasalarga joylashtiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi BMTning “Bola huquqlari toʻgʻrisidagi Konvensiya”ni 1992 yilda ratifikatsiya qilgach, jahonning yetakchi davlatlari qatorida oʻz zimmasiga bola farovonligi uchun zarur hisoblangan qonuniy, maʼmuriy, ijtimoiy va maʼrifiy chora-tadbirlarni koʻrishi majburiyatini oldi. Ushbu Konvensiyaga mutanosib tarzda Oʻzbekiston Respublikasining asosiy qonuni hisoblanuvchi Konstitutsiyaning 45-moddasida bolalar manfaatlari davlat himoyasida ekanligi eʼtirof etilgan.

Ushbu qonunchilik hujjatlari qatorida mustaqillik yillarida bolalar manfaatlari muhofazasi yoʻlida qator meʼyoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi “Bola huquqlari kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi “Oʻzbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi “Voyaga yetmaganlar oʻrtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi “Vasiylik va homiylik toʻgʻrisida”gi Qonuni shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi Maʼlumotlarning tizimli va qiyosiy tahlili, hujjatlarni tahlil qilish usuli.

Xulosa va takliflar Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, ijtimoiy yetimlik– ijtimoiy hodisasi jamiyat institutsional tuzilmasida mustahkam oʻrnashib ulgurganligi bois qisman rasmiylashgan ijtimoiy institut sanaladi. Sababi, ijtimoiy yetimlik institutsional vazifalarni bajarishga yoʻnaltirilgan rasmiy tashkilot va muassasalar faoliyatida hamohang mushtaraklikni taʼminlaydi. Ushbu tashkilotlar qonun va qonunosti hujjatlarida koʻrsatilgan tartibda oʻz huquq va vakolatlaridan kelib chiqib ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarni institutsional muassasalarga rasmiylashtiradi va ularning keyingi taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanadi.

Ijtimoiy yetimlik uzviy ijtimoiy institut sanaladi va oʻziga xos tizim hosil qiluvchi vazifalarni bajaruvchi muassasalar, tashkilotlar faoliyatini yoʻnaltiradi. Mazkur institutning asosiy jihatlari davlat taʼminoti, postinstitutsional qoʻllab-quvvatlash tizimi va boshqalardir.

Adabiyotlar mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mazkur muammoli mavzu ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida quyidagi yoʻnalishlarda tadqiq etilgan.

Xususan, Sh.A. Amonashvili, A.S. Makarenko, I.P. Volkov, I.P. Ilin va boshqalar insonni oʻzaro harakat jarayoni davomida oʻzgarish va rivojlanishga qodir noyob ochiq tizim sifatida anglashni shartlovchi taʼlim va tarbiyaning gumanistik gʻoyalarini tadqiq etgan boʻlsalar, M.I. Lisina, V.S. Muxina, A. M. Prixojan, N.N. Tolstix, T.I. Shulga internat shaklidagi muassasalarda yetim bolalarni rivojlanishi va tarbiyalash masalalarini tahlilini amalga oshirganlar.

Analiz detstva v aspektax sotsializatsii, prav i polojeniya rebenka kak sub'ekta sotsialnoy intervensii so storony vzroslyx predstavlen v trudax uzbekistanskix uchenykh, takix kak Ganieva M.X., Latipova N., Alekseeva V.S., M., Zaitov A.X., Xusanova D., Egamberdieva A. I dr. **Perevesti.**

Ganieva M.X O'zbekistonda ijtimoiy himoya sohasining oilalar va bolalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishdagi funktsiya va imkoniyatlariga e'tibor qaratdi, mavjud tizimni isloh qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqdi. O'zbekiston Respublikasida oila va bolalarni ijtimoiy himoya qilishni yaxshilash yo'llarini Latipova N.M o'z asarlarida o'rganib chiqdi⁵³.

Sotsiolog Zaitov E. yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni oilaviy hamda bolalar muassasalariga joylashtirish tartibi va shakllarini aniq belgilash, ularni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etiladigan nodavlat oilaviy muassasalarga joylashtirish va bolalarga zaruriy ijtimoiy kasbiy ko'nikmalar shakllantirilib borilishi asoslab bergan⁵⁴.

Xusanova D. RBIMM ijtimoiy ish bo'lim boshlig'i ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, nogironligi bo'lgan hamda tarbiyasi og'ir bolalarning muammolarini o'rganish va ularni jamiyatga moslashuviga ko'mak berish uchun ilmiy-tadqiqot natijalar olib bormoqda⁵⁵. Vmeste s tem Egamberdieva A. udelyaet vnimanie pravovym osnovam otnosheniya k detyam, poteryavshim kormilsev, i o sozdavaemykh dlya nix usloviyax. Takje pokazana effektivnost SOS maxalley v vospitanii detey.⁵⁶ **perevesti**

Xuseynova A. analiziruet problemy sotsialno-psixologicheskoy zashchity detey-sirot i detey, ostavshixsya bez popecheniya roditeley⁵⁷. **perevesti**

Yetim bolalar bilan ishlashda ijtimoiy pedagogik faoliyat mohiyatini oydinlashtiruvchi yondashuvlar esa L.A. Belyaeva, Yu.V. Vasilkova, M.A. Galaguzova, F.A. Mustaeva, V.A. Nikitin, A.Ya. Oliferenko, L.K. Sidorovalarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan

⁵³ Латипова Н., Абдугафурова Ч. Основные направления государственной социальной политики охраны детства в Узбекистане. Ж. Историческая и социально-образовательная мысль. 2021. <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-napravleniya-gosudarstvennoy-sotsialnoy-politiki-ohrany-detstva-v-uzbekistane>.

⁵⁴ Зайтов Элёр Институционал муассаса битирувчиларини жамиятга ижтимоийлашувининг устувор йўналишлари. Ижтимоий тадқиқотлар журнали. Махсус сон. 2021. – Тошкент.

⁵⁵ Хусанова Д.Г. Етим болалар учун давлат тарбия муассасалари тарбияланувчиларининг оилавий муҳитга реинтеграциясига таъсир қилувчи психосоциал омилларни ўрганиш масалалари. Глобал дунёда психология фани: назария ва амалиёт, чакирувлар ва истиқболлар. Ўзбекистон Миллий унверситети профессор Эргаш Ғозиевич Ғозиев хотирасига бағишланган республика илмий-амалий конференцияси материаллари 16 февраль 2022 йил, 303-306 бет

⁵⁶ Эгамбердиева, А. М. Усовершенствование детских домов в Узбекистане / А. М. Эгамбердиева. – Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2016. — № 9 (113). – С. 964-967. – URL: <https://moluch.ru/archive/113/28859/> (дата обращения: 03.10.2022).

⁵⁷ Хусейнова А. Оказание помощи детям-сыротам – один из важнейших направлений социальной политики Республики Узбекистан. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 2022. 19(19). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7583.

Tadqiqot metodologiyasi. Teoretiko-metodologicheskuyu osnovu issledovaniya sostavili konsepsii klassikov sotsiologicheskoy mysli (), issledovaniya sovremennykh uchenykh, posvyayennyye institutsionalnomu i strukturno-funksionalnomu podxodam, pozvolyayushim provodit kompleksnyy analiz sostoyaniya sistema sotsialnoy zashchity detey, ostavshixsya bez popecheniya roditeley i detey sirot problemam, sostavili nauchnyye raboty v sovremennom obshchestve. zarubejnykh uchenykh. Udelyalos vnimanie issledovaniyam svyazannykh s problemami s sotsialnoy adaptatsiey detey-sirot, v rabote ispolzovalis takje sotsialno-psixologicheskie podxody.

Nami ispolzovany nauchnyye polojeniya i vyvody, poluchivshie otrazhenie v rabotax predstaviteley strukturno-funksionalnoy teorii Dyurkgeyma E., Parsonsa T., teorii ratsionalnogo deystviya, razrabotannoy M.Veberom, teorii sotsialnogo deystviya i sotsialnykh sistem T.Parsonsa.

Metodologicheskuyu bazu issledovaniya sostavili sistemnyy i strukturno-funksionalnyy podxody. Ispolzovanie sistemnogo podxoda pozvolilo rassmotret sistema sotsialnoy zashchity i obshchestva v sfere sotsialnoy podderjki detey, ostavshixsya bez popecheniya roditeley s tochki zreniya yedinstva gosudarstvennoy i obshchestvennoy sostavlyayushix sistema. Strukturno-funksionalnyy podxod dal vozmojnost proanalizirovat funktsionalnyye vozmojnosti i rassmotret dinamiku ix izmeneniy v sovremennom obshchestve. **perevesti**

Tahlil va natijalar. Jamiyat o'z tarixiy davrlari davomida ota-onaning vafoti yetimlikning asosiy sababi hisolanib kelgan. Ammo, XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshida dunyo miqyosida sodir bo'layotgan globallashuv, modernizatsiyalashuv kabi jarayonlar nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki, ijtimoiy-ma'naviy hamda axloqiy qadriyatlarni parchalanishi kabi sotsial deformatsiyalarga (lot. *deformatio* – buzilishlar*) sabab bo'ldi. Shu o'rnida, bunday sotsial deformatsiyalar ijtimoiy ojiz qatlamlar taqdirida izsiz ketmaydigan ijtimoiy ofatlarga olib sabab bo'ldi. Xususan, G'arb sotsiologlari ham mazkur qarashlarni qo'lladilar. Shu o'rnida, E.Dyurkgeym ko'rsatganidek, jamiyatda sodir bo'layotgan transformatsiyalar ijtimoiy tuzilma faoliyatini izdan chiqarishi va turli salbiy anomaliyalarga olib kelishi mumkin⁵⁸. Charlz Kuli fikri bilan aytganda, ayrim kishilarning hulq-atvori yoki xarakteri aksariyat ko'pchilik tomonidan me'yor sifatida qabul qilingan namuna yoki darajadan yaqqol pastligi yoki nomutanosibliqi nazarda tutiladi⁵⁹. Uning fikricha, sotsial omillarning o'zgartirish orqali insonni o'zgartirishga harakat qilish mumkin⁶⁰. Oilalardagi bunday ijtimoiy sabablarni T.Parsons o'rinli ta'riflaydi va "Er-xotin va voyaga yetmagan bolalardan iborat oila jamiyatning asosiy

*яни, жамиятнинг бир ҳолатдан иккинчисига ўтиши натижасида тарихан шаклланган тузилмалар, турмуш тарзи ва шаклини парчаланиши.

⁵⁸ Дюркгейм Э. Социология. Её предмет, метод и назначение. – Москва: Канон, 1995. – 325 с.

⁵⁹ Кули Чарльз. Человеческая природа и социальный порядок. – Москва: Идея-Пресс, Дом интеллектуальной книги, 2000. – С. 289.

⁶⁰ Там же. – С. 293.

bo'g'ini sifatida zamonaviy kasbiy ierarxiya stratifikatsiyasi shkalasiga binoan barbod bo'lmoqda. Oilada tarbiyalanayotgan bolaning ehtiyojlariga loqayd qaralmoqda. Zero, bolaning oiladagi maqomi katta yoshdagi oila a'zolarining professional kare'erasi nuqtai nazaridan sezilarsizdir. Bu oilaviy birdamlikni yemiruvchi omillardan biri sanaladi"⁶¹. Bolalarga e'tiborsizlik aynan o'sha sotsial ofatlar ichida eng ayanchlisi hisoblanadi. Zamonaviy taraqqiyot sharoitida dunyo miqyosida 100 milliondan ortiq bola⁶² nafaqat ota-onasining o'limi balki, ularning o'z bolalariga nisbatan majburiyatidan ixtiyoriy ravishda voz kechishi hamda ushbu mas'uliyatdan rasman bekor qilinishi oqibatidagi ijtimoiy yetimlikdan jabr ko'rmoqda.

Yetimlik ilm-fan doirasida bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan o'ziga hos murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ilmiy atamashunoslikda ushbu termin biror millatning sotsiomadaniy xususiyatlaridan kelib chiqib talqin etiladi. Aynan, Sharq davlatlarida kundalik muloqotda qo'llaniladigan "yetim" so'zining etimologiyasi, arabcha - "Yatim" (erkaklar ismi) so'zining mohiyatiga borib taqaladi. Ushbu ism turkiy talaffuzda aynan - "yetim" sifatida qo'llaniladi. Uning o'zagida yotuvchi "ytm" - shaxsga nisbatan qo'llanilib, birinchidan, aynan "yetim qolmoq" ni anglatrsa, ikkinchidan "yagona", "noyob" ma'nosida ishlatiladi⁶³.

V.I.Dal o'zining izohli lug'atida ushbu tushuncha mazmunan hech qanday qo'llab-quvvatlanmaydigan, yolg'iz, boshpanasiz bechora kishi sifatida talqinlangan⁶⁴. Xuddi shu mazmundagi fikrlar Ye.I. Trofimovaning tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Muallif umumslavyan va hind yevropa tillari oilasida ushbu atama qadimdan aholining turli kategoriyalari ichida "ota-onasining biri yoki ikkalasidan ajralib qolgan bechora"⁶⁵ ma'nosini anglatganligini bildirgan. Bu ta'rif aholining barcha guruhlariga xos yetimlikni o'z ichiga qamrab oladi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "yetim" atamasi ota-onasi yoki ulardan biri vafot etgan bolaga nisbatan ishlatilib, xalq o'rtasida ota-onasi vafot etib yolg'iz qolgan bola "chin yetim", onasi bilan qolgan bola "gul yetim", otasi bilan qolgan bola "shum yetim", ayrim hollarda otasi hamda onasi tomonidan tashlab ketilgan bolalar ("tirik yetim" deb atalgan⁶⁶. Anashunday bolalarga nisbatan "tashlandiq bola", "yetimcha" kabi tahqirlovchi iboralar qo'llanilgan. "Tashlandiq" so'zi xufyona va oldindan ogohlantirilmasdan yot kishilar tarbiyasiga tashlab ketilgan bolaga qaratilib qo'llanilgan. Tabiatda ushbu jarayonning o'rindosh holati kakku qush modasining yot qush uyasiga tuxum qo'yib ketishida kuzatiladi. Shu uchun, ko'pincha muloqotda "tashlandiq bola" va

⁶¹ Парсонс Т. О структуре социального действия. – Москва.: Академический Проект, 2000. – С. 161

⁶²Раҳматов Л. Соғлом она ва бола: халқаро амалиёт. Хорижий мамлакатлар тажрибаси мисолида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 39.

⁶³Гафуров А.Г. Имя и история. Об именах арабов, таджиков и тюрков. Словарь. – Москва: Наука, 1987. – С. 215.; Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. Издание 3. – Москва: Издатель В.Костин, 2001. – С. 944.

⁶⁴Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. Т. IV. – Москва, 1994. – С. 164.

⁶⁵Трофимова Е.И. Сирота в языке, верованиях и обрядах. Online: [http:// www.ru thenia.ru/folklore/folklore laboratory/TROFIMI.htm](http://www.ruthenia.ru/folklore/folklorelaboratory/TROFIMI.htm).

⁶⁶Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Е ҳарфи. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. - 88 б. www.ziyouz.com кутубхонаси.

“kakku qush poloponi” sinonim o‘rnida qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonunning 1-bob, 3-moddasida esa “yetim-bola – ota-onasining ikkisi ham vafot etgan yoki sud qaroriga muvofiq vafot etgan, deb e‘lon qilingan bola”⁶⁷ deb yozilgan.

Ilmiy ishimizning diqqat markazida turuvchi bolalikdan yetimlik alohida xususiyatli ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ros pedagogik ensiklopediyasida “yetimlik – ona vasiylikidan mahrum bo‘lgan voyaga yetmaganlarning turmush tarzi”⁶⁸ ni anglatadi. Bu yetimlikka bir tomonlama yondashuv bo‘lib, unga binoan onaning vafoti yoki boladan voz kechishi yetimlikning asosiy omil hisobladi. Bunda, otaning bola tarbiyasi va parvarishidagi teng mas‘uliyati e‘tibordan chetda qoldiriladi.

Ye.B.Breeva o‘z izlanishlarida bolalar yetimligining tashqi belgilarini o‘rganar ekan, “bunday bolalarning ota-onasi bo‘lsa-da, ular bolalar uylari, boshpanalar, internatlarda yashashga majburdilar”⁶⁹ - deb takidlaydi. Muallifning takidlashiga ko‘ra, bolaning o‘z oilasi bilan emasligi uning yetimligidan guvohlik beradi. Hususan, klassik mazmundagi yetim (ya‘ni, ota-onasi vafot etgan) bolalar ushbu ta‘rifdan chetda qoladi va zamonaviy jamiyatlarda yetimlikning bu turi ijtimoiy hodisa sifatida shunchaki yo‘q bo‘lib ketgandek tasavvur hosil qiladi.

Shuni alohida aytib o‘tish o‘rinliki, yetimlikka nisbatan ilmiy-ommabop atamashunoslikda ishlatiniluvchi so‘zlar va so‘z birikmalari ushbu ijtimoiy hodisaning o‘ziga xos jixatlari mavjudligidan darak beradi. Biz ushbu tushunchalar mohiyatini umumlashtirgan holda quyidagi umumlashgan xulosani ilgari suramiz: “Kundalik muloqotda ishlatiniluvchi “chin yetim” bolaning ham otasi ham onasi o‘lganligini anglatadi. Ilmiy atamashunoslikdagi “biologik yetimlik” tushunchasi ham xuddi shu mazmunda ishlatiniluvchi so‘z birikmasi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ushbu ikki so‘z birikmasi aynan bir ijtimoiy holatni anglatuvchi sinonim so‘zlar bo‘lib, mohiyatan ota-onaning o‘limi bois ulardan ajralib qolgan bolaning turmush tarzini anglatadi va bu qonunchilik bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetim bolalar sanaladi.

V.S.Muxina tabiiy kataklizmlar (ofatlar, ocharchlik va boshqalar) va ijtimoiy silkinishlar iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, o‘tish davri, turli urushlar, millatlaloro ziddiyatlarni biologik yetimlikning sabablari sifatida guruhlaydi. Ular bois, qochoqlar, majburiy muhojirlar qatlami shakllanadi va ular orasida yetimlar ulushi oshib bormoqda. Xususan, 2015 yilda 244 million xalqaro migrantlar va qochoqlar qayd etilgan bo‘lsa, 2050 yilga kelib ushbu raqamlar 321 milliondan oshib ketishi kutilmoqda¹. Yevropaga kelgan 1

⁶⁷ Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонуни. ЎРҚ-139-сон. 07.01.2008. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 1-2-сон, 1-модда, 2009 й., 52-сон, 554-модда; 2016 й., 52-сон, 597-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2018 й., 03/18/486/1559-сон; 07.12.2019 й., 03/19/587/4122-сон; 11.03.2020 й., 03/20/608/0278-сон.

⁶⁸ Беспризорность.// Российская педагогическая энциклопедия. Online: <http://www.otrok.ru/teach/enc>.

⁶⁹ Бреева Е.Б. Социальное сиротство. Опыт социологического обследования. // Социологические исследования. 2004. № 4. – С. 45.

¹ В ООН ожидают рост масштабов миграции на протяжении ближайших десятилетий. <http://www.newsru.com/world/10may2016/historic.html>.

milliondan ortiq qochoqlarning 253 700 nafari bolalar bo'lib, ulardan 100 ming nafari yolg'iz bolalar sifatida qayd etilgan².

Xalqaro miqyosda o'tgan asrning 60-80 yillarida bolalar huquqlarini himoya qilish borasida keng ko'lamlı amaliy ishlar e'tiborga molik. Bu davrda, bir tomondan, BMT yoshlar ijtimoiy-demografik guruhiga bo'lgan munosabatning yangicha tamoyillarini begilab beruvchi qator hujjatlarni qabul qildi. 1965 yilda BMT Bosh Assambleyasining "Yoshlar o'rtasida tinchlik g'oyalari, millatlararo o'zaro hurmat va tushunishni targ'ib etish to'g'risida"gi Deklaratsiyasi e'lon qilindi. Natijada xalqaro hamjamiyatning e'tibori o'sib kelayotgan yoshlar muammolariga qaratildi. Shunday bo'lsa ham, yetim va ota-ona qarovisiz qolgan bolalar zamonaviy jamiyatlarning og'riqli muammolaridan biri bo'lib qolaverdi.

Biologik yetimlikning asl mazmuni bizning kungacha buzilmasdan saqlanib kelsa ham, zamonaviy jamiyat ushbu ijtimoiy hodisaning yangi toifalarini xususan, ijtimoiy yetimlikni shakllantirdi. Ilmiy davralarda bu ikki tushuncha birin-ketin qo'llanilib, yetimlikni shakllantiruvchi omillari va sabablari tubdan ajralib turishini bildiradi. Biz bu doiradagi muloxazalarni yahlitlashtirib, biologik (chin) yetimlik asosida ota-onaning o'limi yotsa, ijtimoiy yetimlikda, aksincha, tirik ota-onaning biri/ikkisi tomonidan yoki yolg'iz ona/ota tomonidan turli bahona va sabablar bois bola tarbiyasidan bo'sh tortishi, deb hisoblaymiz.

"Ijtimoiy yetimlik" iborasini ilk bor 1987 yilda o'qituvchilarning Umumrossiya anjumanida A.Lixanov tomonidan "tirik ota-onasi bo'la turib" yetim qolgan 400 ming bolalarning ijtimoiy holatini tushuntirish maqsadida qo'llanildi. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy yetimlar yetimlikning barcha shakllari ichida mutlaq ko'p sonli bo'lib, jami yetim bolalarning deyarli 93% ni tashkil etadi⁷⁰.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib ijtimoiy yetimlikni tushuntirgan N.D.Nikandrov yetimlikning ushbu shaklini keltirib chiqaruvchi omillarni "qadriyatli vakuumda umumiy maqsadning yo'qotilishi"⁷¹ da ko'radi. Haqiqatdan ham, ijtimoiy makondagi zamonaviy o'zgarishlar katta yoshli aholi qatlamida hayot mazmun mohiyatini yo'qotilishi oqibatidagi ijtimoiy-ruhiy bo'shliqlarni hosil qilmoqda. Chunonchi, katta yoshli avlod vakillarining hayotiy murakkab vaziyatlari va ijtimoiy muammolari oqibatidan zarar ko'ruvchilar bolalardir. Ularning ko'pchiligi M.A.Galaguzova, Yu.V. Vasilkov va T.A.Vasilkovlar tadqiqotlariga binoan hali 18 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlar bo'lib, biologik ota-onalari ularning tarbiyasi va parvarishi bilan shug'ullanmaydi⁷². Natijada, L.S.Kochkina fikri bilan aytganda: "Davlat bu kabi ota-onalarning bolalariga berayotgan tarbiyasidan qoniqmaydi va bu funksiyani o'z

² Суровая зима – новое испытание для детей из числа беженцев и мигрантов прибывающих в Европу. <http://www.un.org>.

⁷⁰ Кожевникова Е.И. Социальное сиротства в современной России: состояние и детерминанты. // Вестник РУДН, 2013. №2. – С. 49.

⁷¹ Никандров Н.Д. Россия: социализация и воспитание на рубеже тысячелетий. – Москва: Педагогическое общество России, 2000. – С. 7.

⁷² Галагузова М.А. Социальная педагогика: Курс лекций. – Москва: 2000. – С. 192.

zimmasiga oladi"⁷³.

Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy yetimlik bolalar nazoratsizligi va qarovsizligidan hosil bo'luvchi keng qamrovli ijtimoiy hodisa bo'lib, O.I.Dubinina, V.A.Stepanov, L.A.Satarova⁷⁴ hamda O.A.Dorjokina⁷⁵lar bolaning ota-ona qarovsiz qolishiga olib keluvchi omillarni quyidagicha tasniflaydi: 1) ota-onaning yo'qligi yoki ularning ota-onalik huquqidan mahrum etilganligi; 2) ota-onalik huquqini cheklanganligi; 3) ota-onaning bedarak ketgan deb topilganligi; 4) ota-onaning layoqatsiz deb topilganligi (yoki layoqati cheklanganligi); 5) ularni o'lgan deb e'lon qilinganligi; 6) ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida muddatini o'tayotganligi.

Ushbu turkum ijtimoiy yetimlik omillarini deyarli barchasini qamrab olsada, bizningcha, uning xufyona kechuvchi yana bir shakli, ya'ni, bolaga zaruriy e'tibor va mehr ko'rsatmaslik, bolaning psixofiziologik ehtiyojlarini zaruriy darajada qondirilmaligi chetda qolib ketgan. "Xufyona yetimlik" (yoki "uy yetimlari")da voyaga yetmagan bolalar rasman ota-ona bag'rida bo'lsa-da, ularning bola parvarishiga be e'tiborligi yoki shafqatsiz munosabati bois iliq bog'liqlik o'rnatilmaganligi nazarda tutiladi. Ko'pincha, institutsional muassasaga bolaning kelib tushishi aksariyat vaziyatlarda go'daklik va ilk bolalik davrida (ya'ni, 3 yoshgacha) sodir bo'ladi. Oila bag'rida tarbiyalanayotgan bolada aynan ilk go'daklik davrida tashqi olamga ishonch hissini hosil qiluvchi ota-ona va yaqin kattalarga nisbatan iliq bog'liqlik shakllanadi. Iliq yoki hissiy bog'langanlik bolada tug'ma ehtiyoj bo'lib, uning o'rnatilganligi individda me'yoriy psixofiziologik rivojlanish va barqaror ijtimoiylashuvni ta'minlaydi. Ushbu ehtiyoj bolada ota-onaning jismonan yo'qotilishi (vafoti yoki boladan voz kechish), ular tomonidan be e'tibor yoki shafqatsiz munosabat, bolaning o'z oilasi doirasidan tashqarida tarbiyalanishi bois izdan chiqadi.

L.M. Shipisinaning fikricha: "Xufyona ijtimoiy yetimlik - bu ma'naviy tuban oilalarda ota-onasi bilan birga yashovchi bolalarning turmush tarzi bo'lib, bunday vaziyat bola psixofiziologik rivojlanishida nuqsonlarni shakllantiradi"¹. N.N.Versinskaya tadqiqotlariga ko'ra bunday bolalar sirasiga hatto "to'kin-sochin va shinam hayot kechiruvchi", moddiy ta'minlangan, badavlat oila farzandlari hamkiradi². Zero, ular me'yoriy ijtimoiylashuv uchun kerakli shart-sharoitlarga ega bo'lsalar-da, ota-onalari ularga keragicha mehr bermaydi va e'tibor qilmaydi. Natijada, bunday bolalar o'z kelajak reja va maqsadlarni to'g'ri shakllantira olmaydi va aksariyat yomon niyatli shaxslar, guruhlar ta'siriga osonlikcha beriladi. Shuni alohida aytib o'tish joizki, xufyona yetimlik rivojlanayotgan aksariyat oilalar chetdan qaraganda to'laqonli barqaror tasavvur hosil

⁷³Кочкина Л.С. Подготовка детей-сирот к жизненному и профессиональному самоопределению в условиях дома детства: Дис. ... канд. пед. наук. – Москва., 1998. – С. 34.

⁷⁴Дубинина О.И., В.А.Степанова, Сатарова Л.А. Социально-педагогическая работа с детьми, оставшимися без попечения родителей. // Труды СГА. 2014. №12. – С. 18-25.

⁷⁵Дорожжина О.А. Педагогические основы преодоления и профилактики социального сиротства в России: Дис. ... д-ра пед. наук. – Москва., 2001. – С. 71-95.

¹Шипицина Л.М. Психология детей-сирот. – СПб: Санкт-Петербургский университет, 2005. – С. 628.

²Верцинская Н.Н. Трудный ребёнок. – Минск: Народная асвета, 1989. – С. 128.

qiladi. Ushbu sohta niqob tagida yillar mobaynida bolaga nisbatan ijtimoiy tahdidlar o'sib boradi. Aksariyat vaziyatlarda oilaning noqobilligi ijtimoiy-ruhiy tang vaziyatdagi bolaning uydan ketib qolishi natijasida ayon bo'ladi.

Bizningcha, ushbu tasnifga ijtimoiy yetimlikning farqli shakllaridan biri bo'lgan "ikkilamchi yetimlik" dan jabr ko'rayotgan bolalarni kiritish maqsadga muvofiq. Ikkilamchi yetimlik deganda farzandlikka yoki vasiylikka va homilikka olingan boladan tutingan (yoki ijtimoiy) ota-ona ham voz kechganlik holatini tushunishimiz mumkin. Ikkilamchi yetimlik omillari, vasiy va homiy ota-onada bola tarbiyasi va parvarishi borasida psixologik-pedagogik ijtimoiylashtirishga doir ko'nikmalarning yetarli emasligi, bola va tutingan ota-ona manfaatlaridagi konfliktlar, o'zaro hissiy munosabatning o'rnatilmaganligi, bolada irsiy yoki boshqa kasalliklarni paydo bo'lishi natijasida yuzaga keluvchi ziddiyatlarga tayyor emaslik, farzandlikka yoki vasiylik va homiylikka olishdagi g'araz niyat kabillardir. Achinarlisi, ikkilamchi yetimlik bola shaxsiyatida kuchli ahloqiy va psixologik degradatsiyaga sabab bo'ladi.

Ba'zida oilaga berilgan bolalar institutsional muassasalarga qaytarilishini kuzatish mumkin. Bunday holatlarda oilaga bolalarni joylashtirish jarayonida oilalar holatini aniq baholaydigan indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Statistik ma'lumotlarga binoan aynan shu boradagi muammolar sabab, birgina Germaniyada 2012 yilda 40 000 bola bolalar uylariga qabul qilingan. Ularning 17 ming nafari ota-onasi tomonidan tahqirlanganligi uchun, 7 ming nafari oilaviy tarbiyadagi muammolar bois, 3 ming esa kriminal hodisalar oqibatida oilasidan judo bo'lgan¹. Boshqalari tazyiq va zo'ravonlik, uy-joy ahvolining yaxshi emasligi, g'yohvand moddalar iste'moli, ota-onasining ajrashib ketganligi sababli bolalar muassasalariga kelib qolgan.

T.N.Otdelkinaning tadqiqotlariga binoan zamonaviy jamiyatlarda yetim va ijtimoiy yetim bolalar sonining o'sish jarayoni katta yoshli avlod vakillarining og'ir va surunkali kechuvchi kasalliklarga chalinish chastotasi bilan uzviy bog'liq². Zero, tinimsiz taraqqiyotning salbiy oqibatlaridan biri bo'lgan OIV/OITS jahon miqyosida yetimlikning yangi turi – "OITS yetimlari" ni shakllantirdi. "OIV/OITS yetimlari" aksariyat asotsial hулq-atvorli ota-onalarning ikkalasi yoki ulardan birining bevaqr o'limi munosabati bilan yetim qolgan bolalardir. BMTning OITS bo'yicha dasturlari (UNAIDS), Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti va YuNISEF ning rasmiy statistik ma'lumotlariga muvofiq ushbu atama aksariyat vaziyatda otasi tirikligidan qat'iy nazar onasi OITS tufayli nobud bo'lgan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga nisbatan qo'llanilmoqda. Ko'rinki, 80% "OITS yetimlari" ning ota-onasidan biri tirik. XXI asr vabosi sanalgan ushbu kasallik bois, dunyo

¹ Раҳматов Л. Соғлом она ва бола: халқаро амалиёт. Хорижий давлатлар тажрибаси мисолида. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 159.

² Отделкина Т.Н. Формирование института замещающей семьи: история и современность. Общественные науки. Социология. №4. (36), 2015. – С. 105.

miqyosida so'nggi yillarda 20 milliondan ortiq bola yetim qoldi⁷⁶. Ijtimoiy yetimlikdan jabr ko'rayotgan bolalarning ichida bunday bolalar soni borgan sari oshib bormoqda.

Rasmiy raqamlar dunyo miqyosida jami yetim bolalarning atiga 10-15% - biologik (chin) yetimlar, qolgan 90%-85% i esa ijtimoiy yetimlar ekanligini ko'rsatadi⁷⁷. Shunga hos ravishda, to'liq davlat ta'minotidagi institutsional muassasalarda tarbiyalanayotgan jami bolalarning o'rtacha 5-10% biologik (chin) yetim bolalar bo'lsa, 90-95% ijtimoiy yetim bolalardir.

M.Dmitrieva ko'rsatishicha, g'arb davlatlarida ijtimoiy yetimlik omillariga sabab bo'layotgan tub muammolar nikoh yoshining kechikishi, ajrimlar, norasmiy nikoh munosabatlarining ommalashuvi, tug'ilishning kamayishi, bir jinsli munosabatlarning legallashtirilishi, zararli odatlarga ro'ju qo'yish, natijada esa rasmiy nikoh va oila institutining parchalanishi bilan uzviy bog'liq⁷⁸. Afsuski, g'arbning rivojlangan mamlakatlarida an'anaviy oila institutini saqlab qolishga qodir ijtimoiy siyosati yuritilmaydi.

Oila-nikoh munosabatlarining tanazzuli borasida ilmiy izlanishlarini olib borgan qator izlanuvchilarning fikricha, tezkor va o'zgaruvchan zamonaviy jamiyatlarda erkin munosabatlar shaxsga ortiqcha mas'uliyat yuklamasligi bois urf bo'lib bormoqda. Afsuski, bunday qulay munosabatlar farzandlarning ruhan sog'lom va komil inson sifatida voyaga yetishiga rahna soladi⁷⁹. Bugungi kunda, oilalarning buzilishi shu darajadagi, unga kundalik oddiy bir voqea sifatida qaraladi⁸⁰. Oiladagi sog'lom bo'lmagan muhit ham tarbiya buzilishining kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ayrim oilalarda bola uchun zaruriy imkoniyatlar mavjud emasligi sababli noxush holat bilan yolg'iz kurash olib borish kechinmalari bilan yashaydi⁸¹. Oqibatda birgina AQShda bolalarning atiga ¼ to'liq oilalarda tarbiyalanmoqda⁸².

2000 yildan buyon boladan yashirin voz kechuvchilar uchun maxsus jihozlangan Bebi-boks tarmog'i paydo bo'lmoqda. Ular ko'pincha, tibbiy yoki diniy muassasalar qoshida tuziladi. Ular ichiga bola qoldirilgach, 30 sekuntda eshigi avtomatik yopiladi va muassasa mutaxassislariga signal yoki SMS xabar keladi. Xabar qabul qilingan vaqtning o'zida bolani to'liq ko'rikdan o'tkazish maqsadida tibbiy xodimlar va politsiya mutassaddilari keladi va bola vasiylik organlariga topshiriladi. Bunday "bola qutilari" Germaniyada "hayot oynasi", Italiyada "hayot beshigi", Yaponiyada "laylak beshigi" yoki "bolalar pochatasi", Xitoyda "bolalarni qutqarish orolchasi" deb nomlanadi. Germaniyada ilk bebi-boks 2000 yilda Gamburg shahrida aksariyat hayotidan norozi

⁷⁶ Regina A. Schon, Maarit Silven. Natural Paenting – Back to Basics in infant Care// Evolutionary Psychology. – 2007. №5. – P. 102-183.

⁷⁷ <http://zakon7ya.ru/formy-ustrojstva-detej/opeka-i-popechitelstvo/sirotstvo.html#i-4>

⁷⁸ Дмитриева М.А. Причины социального сиротства. // Молодой учёный. №11 (46). Ноябрь, 2012. – С. 353-354.

⁷⁹ Халилова Ш. Оила номли давлат сирлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 8.

⁸⁰ Бўриев О., Усмонов М. Ўзбек оиласи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 18.

⁸¹ Умаров Б.М., Ражабов Ф.П. Вояга етмаганларда хулқ оғиши ва тарбия бузилишининг ижтимоий-психологик омиллари. // Замонавий таълим. 2015. №8. – Б. 18.

⁸² Раҳматов Л. Соғлом она ва бола: халқаро амалиёт. Хорижий давлатлар тажрибаси мисолида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016. – Б. 65.

fohisha, giyoxvand va aqliy zaif ayollar tomonidan o'z bolasini nobut qilishi kabi ayanchli holatlarini oldini olish maqsadida o'rnatilgan. Ushbu bolalar qutilariga dastlabki 10 yil davomida (1999-2010 yillarda) 973 nafar xufyona tug'ruq yordamida dunyoga kelgan bolalarning 278 nafari tashlab ketilgan. 2016 yilda esa bunday muassasalar soni 91 taga yetdi⁸³. So'nggi paytlarda xuddi shunday muassasalarga endi tug'ilgan nogironligi bo'lgan bolasini tashlab ketish ko'payib bormoqda.

BMT ning bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi bolalarni yashirin tarzda qoldirilishidan tashvishlanib bebi-bokslar tizimi faoliyati Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 6, 9, 19-moddalariga zid ekanligi bois 2012 yildan ularni ta'qiqlashni tavsiya etmoqda⁸⁴. Bunday bolalar qutilarining ommaviy tarzda o'rnatilishi boladan osonlikcha voz kechish payida bo'lgan mehirsiz ota-onalarni rag'batlantirib qo'yimoqda.

Bolani oiladan majburiy tarzda tortib olish esa bolaning hayoti, manfaat va huquqlarini himoyalash maqsadida aksariyat nomuvofiq oilalarda sodir bo'ladi. Bunda ota-onalik huquqidan mahrum etish huquqiy hujjat sifatida sud qarori bilan amalga oshiriladi. Voyaga yetmagan bolasidan ota yoki onaning o'z hohishiga ko'ra voz kechishi (aksariyat tug'ruqxonada) – yuridik akt bo'lib maxsus rasmiy qonunchilik hujjat bilan mustahkamlanadi. Birlamchi 3 oy davomida ota-ona o'z qarorini o'zgartirishi va bolani oilaga qaytarishi mumkin. Qonunan “voz kechilgan bola” maqomiga ega bo'lgach, bola bolalar institutsional muassasalariga yo'naltirilishi yoki boshqa oilaga joylashtirilishi uchun topshirilishi kerak.

Aksariyat vaziyatlarda bolaning oiladan boshqa joyda tarbiyalanishi uning institutsional muassasaga joylashtirilganligini anglatadi. Shu o'rinda, institutsional muassasa – bu yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar va o'smirlarning uzoq muddatga to'liq davlat ta'minotiga oluvchi tashkilotlar sanaladi.

Shunday bo'lsa-da, institutsional muassasalar afzalliklaridan biri aka-uka, opa-singillarning bir guruhga joylashtirilishi bo'lib, bu qarindoshlik munosabatlarini saqlab qolish va bolada oilasidan butunlay uzilganlik hissini kamaytirish uchun muhim ahmiyat kasb etadi. G'arb mamlakatlari tajribasida siblinglar (ing - *sibling* – tug'ishgan aka-uka yoki opa-singil) bilan uzviy munosabat bolaning barqaror rivoji uchun o'ta muhim sanaladi. Zero, bolalar ham aka-ukasi yoki opa-singillari bilan birga yoki ular bilan aloqani ushlab turish sharoiti yaratilganligini juda qadrlaydilar¹. Ammo, A.Sinkler va A.Gibbs tadqiqotlarida aniqlashicha, siblinglar o'rtasidagi aloqalar mustahkamligi bilinarli tarzda yo'qotilgan. Chunki, mualliflarning tadqiqotda ishtirok etgan yetim bolalarning yarmi o'z jigarbandlari bilan tez-tez ko'rishib turish istagini bildirgan bo'lsa,

⁸³ Ўша манба. – Б. 71.

⁸⁴ Комитет по правам ребёнка. Заключительные замечания по объединённому третьему и четвертому и пятому периодическим докладом Российской Федерации. Управление Верховного Комиссара ООН по правам человека. 25. 02. 2014. – 45-46 пункты.

¹ Kosonen, M. Role of siblings in relation to children in residential care. // Chakrabarti, M & Hill, M. (eds) Residential child care: International perspectives on links with families and peers. London: Jessica Kingsley, 2000. – P. 125-140.

qolgan qismi esa o'z siblinglaridan ajratilgan holda yashayotganligi ma'lum bo'lgan⁸⁵.

I.B.Nazarovning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, muassasadagi aksariyat tarbiyalanuvchilar oilada yolg'iz farzand emas (88,3%), to'rtidan bir qismi (27,6%) muassasada aka-uka yoki opa-singlisi bilan birga tarbiyalanadi. Shundan 12,2% tug'ishganlar boshqa muassasada yashaydi. Qolganlari katta yoshda mustaqil yashovchilar (25,1%) yoki ota-onasi bilan yashaydi (21,4%), yoki boshqa qarindoshlari qaramog'ida (15%) bo'lgan bolalardir⁸⁶. Muassasada tarbiyalanayotgan qizlarning 46,2% opa-singlisi bilan muloqtda bo'lsalar, o'g'il bolalarning 53,8% - aka-ukasi bilan uzviy muloqotda bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ijtimoiy yetimlik- ijtimoiy hodisasi jamiyat institutsional tuzilmasida mustahkam o'rnashib ulguranganligi bois qisman rasmiylashgan ijtimoiy institut sanaladi. Sababi, ijtimoiy yetimlik institutsional vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan rasmiy tashkilot va muassasalar faoliyatida hamohang mushtaraklikni ta'minlaydi. Ushbu tashkilotlar qonun va qonunosti hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda o'z huquq va vakolatlaridan kelib chiqib ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni institutsional muassasalarga rasmiylashtiradi va ularning keyingi ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Ijtimoiy yetimlik uzviy ijtimoiy institut sanaladi va o'ziga xos tizim hosil qiluvchi vazifalarni bajaruvchi muassasalar, tashkilotlar faoliyatini yo'naltiradi. Mazkur institutning asosiy jihatlari davlat ta'minoti, postinstitutsional qo'llab-quvvatlash tizimi va boshqalardir.

⁸⁵ Paterson S, Watson D, Whiteford J. Let's Face It! Care 2003. Young People Tell Us How It Is. – Glasgow: Who Cares? Scotland, 2003. – P. 129.

⁸⁶ Назарова И.Б. Адаптация и возможные модели мобильности сирот. //Научные доклады. № 120. – Москва., 2000. – С. 181-189.